

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.Xakimov, B.A.Nabiyev</b>	
Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi.....	217
<b>X.Raxmatova</b>	
Abu Said Abulxayrning “Risolai havroiyya” asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida .....	225
<b>B.Iminov</b>	
Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi “Dehqon” jurnalining tarixi .....	229
<b>O‘.Ahmedova</b>	
Davlat va jamiyat boshqaruviga ma’naviy tarbiyaning ta’siri .....	233
<b>B.Xasanov</b>	
Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi .....	236
<b>B.Yalgashev</b>	
Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari .....	240
<b>J.Yusubov</b>	
Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o‘ziga xos jihatlari .....	245
<b>D.Sagdullaeva</b>	
Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	248
<b>A.Tojaliyev</b>	
Oliy ta’lim-yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti .....	254
<b>E.Zoyirov</b>	
Ya’qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....	258
<b>U.Azimov</b>	
Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili.....	264
<b>A.Abdumalikov</b>	
Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli .....	267
<b>I.Rizayev</b>	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	272
<b>R.Mardonov</b>	
Sharq va g‘arb ta’lim falsafalarining o‘zaro ta’siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot.....	279
<b>F.Yuldashev</b>	
Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi.....	283
<b>F.Usmonov</b>	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari .....	282
<b>H.Muhamadiyev</b>	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida .....	293

## SIYOSAT

<b>D.Sharipov</b>	
Tinchlikni ta’minlashning innovatsion omillari .....	298
<b>M.Habibullaev</b>	
Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma’naviy – ma’rifiy islohotlarning dolzarbligi .....	302
<b>M.G‘anyeva</b>	
Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni.....	305
<b>O.Boboqulov</b>	
Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O‘zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari .....	309
<b>J.Sultonov</b>	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish.....	311

**SINERGETIKA: IJTIMOY TIZIMNI TADQIQ QILISHDAGI MUAMMO VA IMKONIYATLAR**  
**SYNERGETICS: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES IN THE RESEARCH OF SOCIAL SYSTEMS**

**СИНЕРГЕТИКА: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В ИССЛЕДОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ СИСТЕМ**

**Ilhom Rizayev<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Ilhom Rizayev**

– Toshkent Axborot va Texnologiya Universiteti  
Samarqand Filiali, Gumanitar va ijtimoiy fanlar  
kafedrası falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Maqolada sinergetik g'oyalarni ijtimoiy fanlarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, ijtimoiy tizimni tadqiq qilishda sinergetika va uning imkoniyatlari atroflicha muhokama qilingan. Rivojlanish jarayonini dialektika tasvirlaydi va uni sinergetika bilan almashtirish mumkin emas. Zamonaviy fanda jamiyatni o'rganishga yanada samarali yondashish mavjud bo'lgan barcha metodologik yondashuvlarning elementlarini sintez qilish, xususan: dialektik, informatsion, tizimli, sinergetik va boshqalar asosida amalga oshirilishi mumkinligi tadqiq etilgan.*

**Аннотация**

*В статье описаны особенности использования синергетических идей в социальных науках. Также подробно обсуждены синергетика и ее возможности в исследовании социальной системы. Процесс развития описывается диалектикой и не может быть заменен синергетикой. Исследовано, что более эффективный подход к изучению общества в современной науке может осуществляться на основе синтеза элементов всех существующих методологических подходов, в частности: диалектического, информационного, системного, синергетического и др.*

**Abstract**

*The article describes the features of the use of synergetic ideas in the social sciences. Synergetics and its possibilities in the study of the social system are also discussed in detail. The development process is described by dialectics and cannot be replaced by synergetics. It has been studied that a more effective approach to the study of society in modern science can be carried out on the basis of a synthesis of elements of all existing methodological approaches, in particular: dialectical, informational, systemic, synergetic, etc.*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tizim, ijtimoiy fanlar, sinergetika, metodologiya, dialektika, fluktuatsiya, bifurkatsiya.

**Ключевые слова:** социальная система, социальные науки, синергетика, методология, диалектика, флуктуация, бифуркация.

**Key words:** social system, social sciences, synergetics, methodology, dialectics, fluctuation, bifurcation.

**KIRISH**

Zamonaviy ijtimoiy fanlarning yangi metodologik yondashuvlarga murojaat qilishi ular holatining zaruriy hosilasidir. Avvalgi ijtimoiy tuzumning o'zgartirilishi va qandaydir yangi ijtimoiy tuzumga o'tishga urinishlar ijtimoiy fanni avvalgi asoslaridan mahrum qildi. Ilmiy inqiroz holati yuzaga keldi. Mamlakatimizdagi siyosiy voqealar o'z vaqtida jahon ilm-fanidagi jarayonlarga, ya'ni o'z taraqqiyotining neoklassik bosqichidan keyingi postnoklassik bosqichiga to'g'ri keldi. Ayni shunga o'xshash holat G'arbdagi ijtimoiy fanlariga ham xosdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yangicha yondashuvlar, g'oyalar, modellar va boshqalar mavjud bo'lmaganda, sinergetika ijtimoiy sohada yangi tadqiqot mavzularini izlayotganlar uchun toza havoga aylandi. Ijtimoiy-tarixiy hodisalarni bilishda sinergetik yondashuvning qo'llanilishini tahlil qilar ekan, B.O.Turaev sinergetikaning evristik imkoniyatlaridan xabardor bo'lish, klassik va neoklassik fanning metodologik imkoniyatlarining "tugashini" tushunish ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda sinergetik g'oyalarning rivojlanishiga olib keladi, deb ta'kidlaydi [1]. Z.O.Muminovanning fikricha, bir qator olimlar yangi dunyoqarashning ijtimoiy-falsafiy qo'llash imkoniyatlarini izlashda davom etmoqdalar [2]. G.S.Sultanova esa yangi g'oyalarning nazariy tarixga tatbiq etilishini tahlil qilishda samoqli tadqiqotlar o'tzib kelmoqda [3]. M.H.Ergasheva sinergetikadan ta'limning murakkab superattraktor tomon harakatlanadigan rivojlantiruvchi sifatida o'z-o'zini tashkillashtirishini tahlil qilishda va ijtimoiy

## FALSAFA

rivojlanishni tahlil qilishda foydalanadi [4]. Biz esa ijtimoiy tizimlarning dinamik o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmlari konsepsiyasini ishlab chiqishga harakat qilganmiz [5].

Sotsiosinergetikada amaliy tadqiqotlar ham rivojlanmoqda, masalan, ijtimoiy tengsizlik muammolari, iqtisodiyot, konfliktologiya, siyosatshunoslik sinergetikasi kabi sohalardagi muammolar o'z izdanuvchilarini kutmoqda.

Sinergetik g'oyalarni ijtimoiy fanlarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni o'rganishda sinergetik yondashuv qo'llaniladigan bir qancha sohalarni belgilab o'tishimiz mumkin.

▣ Birinchi yo'nalish tadqiqotchini bir tomondan o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmlarini, boshqa tomondan ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayotni tashkil etish sohasidagi tartibga solish mexanizmlarini tushunish orqali ularning rivojlanish qonunlarini bilishga yo'naltiradi. Natijada, jamiyatning keng ko'lamli o'zgarishlari sharoitida o'zaro ta'sirni o'z-o'zidan va ratsional boshqarish mexanizmining kumulyativ sinergetik samaradorligi aniqlandi.

▣ Ikkinchi yo'nalish ularning dinamikasidagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy o'z-o'zini tashkillashtirish muammosini faqat ijtimoiy omillar darajasida ko'rib chiqish mumkin emas (iqtisodiy faoliyatda, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda va hokazolarda yangi munosabatlarni shakllantirish misolida), shuningdek, ma'naviy va ramziy o'ziga xoslikni, an'analarning ma'nosini, madaniyatning qadriyat-semantik asoslarini ko'rib chiqishni nazarda tutadi, bu yo'nalish sinergetika tamoyillarini "an'anaviy" kulturologik metodlar bilan birlashtirishni nazarda tutadi.

▣ Uchinchi yo'nalish falsafiy va madaniy tadqiqotlarga umumiy yo'nalishni ta'minlaydigan sinergetikaning alohida tamoyillarini emas, balki tabiiy ilmiy bilimlarning turli sohalardan sinergetik sxemalar va modellarni o'tkazish bilan bog'liq.

Belgilangan kognitiv strategiyalarning har biri tabiatshunoslik fanlarining modellari va sxemalari, shuningdek, ijtimoiy va gumanitar fanlarining metodlari va yondashuvlari (strukturaviy-funksional, germenevtik, fenomenologik, psixologik va boshqalar) "chorrahasida" tug'iladi.

Kulturologik tadqiqotlar o'ziga xos yo'nalish bo'lib, u sinergetikaga asoslangan tarzda madaniyatdagi o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan. E'tibor beradigan bo'lsak, tadqiqot amaliyotida ko'pincha ikki yoki uchta metodologik yondashuv birlashtiriladi. Buning asosi turli bilim sohalari (tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-gumanitar va boshqalar) o'rtasidagi o'zaro ta'sirning samaradorligidan desak, xato bo'lmaydi.

O'zbekistonda ijtimoiy sinergetika falsafiy va ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarning ikki asosiy yo'nalishi: fundamental (nazariy) va amaliy jihatdan rivojlanib bormoqda. Xususan nazariy yo'nalish doirasida quyidagilarga e'tibor qaratilmoqda:

▣ ijtimoiy sinergetikaning metodologik asosi sifatida sinergetikaning asosiy tamoyillari va strategiyalari — transdistsiplinarlik, fanlararo muvofiqlashtirish va dialog;

▣ noxizizliq dinamika va noxizizliq tafakkur;

▣ ochiq o'z-o'zini tashkillashtiruvchi ijtimoiy (insoniy) tizimlarning xatti-harakati va boshqalar;

▣ Ijtimoiy va sotsial-madaniy sinergetikaning amaliy yo'nalishini rivojlantirish ham jadal tarzda kechmoqda, uning doirasida quyidagilar aniqlanadi:

▣ ijtimoiy tizimlarning turli darajalarida — sivilizatsiya, mintaqa va boshqalarda sotsial-madaniy jarayonlarning o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmlari.

▣ ijtimoiy sinergetikaning muhim xususiyati tadqiqotning nazariy darajasidan empirik darajasiga o'zaro o'tish va aksincha, tadqiqotda "o'rta" qatlamning mavjudligidir.

▣ Sinergetika sotsial-madaniy jarayonlarni tushunish uchun yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladigan tadqiqot strategiyalarining to'rt turini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

▣ kommunikativ (dialog) strategiya;

▣ sinergetik modellarni boshqa materialga o'tkazish bilan bog'liq nazariy modellashtirish;

▣ transditsiplinar strategiya;

▣ sinergetik diskurs.

Sinergetika o'zining kognitiv imkoniyatlari bilan zamonaviy fan va xususan ijtimoiy fan uchun katta ahamiyatga ega. Bu tadqiqotchini dunyoni yanada murakkab idrok etishga yo'naltiradi. Murakkab (ochiq, muvozanatsiz) tizimlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni ochib berish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda sinergetika shakllanish jarayonida bo'lib, aniq va mustahkam

tuzilishga ega emas. Metodologik funktsiya sinergetikaning barcha qismlari tomonidan turli darajalarda amalga oshiriladi: tamoyillar, qonunlar va asosiy tushunchalar.

Sinergetikaga qiziqishning kuchayishi uning evristik imkoniyatlari bilan bog'liq. Bu imkoniyatlar har qanday ochiq, muvozanatsiz tizimlarda sodir bo'ladigan o'z-o'zini tashkillashtirish qonuniyatlarida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tashkillashtirish qonuniyatlarini universal xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ularni tarixiy jarayonni tahlil qilish va bir qator boshqa jarayonlarga tatbiq etishda ma'lum cheklovlar mavjud. Bu cheklovlar kashf etilgan qonuniyatlarining ahamiyatini tushunish bilan ham, qonuniyatlarining o'z tabiati bilan ham bog'liq.

Ijtimoiy tadqiqotlarda sinergetikadan foydalanish ko'pincha uning qonuniyatlarini mutlaqlashtirish va falsafiy metodologiyaning, xususan, dialektikaning rolini inkor etish bilan bog'liq [6]. Bu, ayniqsa, bifurkatsiyaga uchragan tizimning rivojlanish jarayoni haqida gap ketganda, tadqiqot natijalarining e'tiboridan chetda qolmaydi. Ta'kidlash joizki, dialektika o'zining imkoniyatlarini yo'qotgani yo'q va barcha muammolarni yangi metodologik yondashuv yordamida hal qilishga urinish noto'g'ri bo'ladi.

Sinergetikaning ayrim tarafdorlari dialektikani sinergetikaga "moslashtirish" ga urinib, dialektik qonuniyatlarni tahrir qilmoqdalar. Agar bu mazmunning o'zgarishi yoki buzilishlarga emas, balki uning rivojlanishiga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, bu juda maqbuldir [7].

Sinergetikaning o'zi bilvosita dialektikani o'z ichiga oladi, lekin tan olib aytish kerakki, sinergetikaning ishlab chiqilmagan qoidalari va u ishlatadigan tilning o'ziga xosligi tufayli hali o'zini yetarlicha namoyon etmagan. Sinergetikaning eng "sodiq" tadqiqotchilari va muxlislari uning yangiligini ham, dialektik xarakterini ham inkor etmaydilar. Sinergetikani tushunishimiz uchun asos shundan iboratki, uning deyarli barcha tushunchalari, tamoyillari va obrazlari o'z mohiyatiga ko'ra dialektik xususiyatga ega bo'lib, zamonaviy ilmda dunyoning dialektik manzarasini shakllantirishga yordam beradi [8].

Sinergetika turli xil ochiq tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirishini tushuntirilgan uchungina falsafiy metodologiya darajasiga ko'tarishga urinishlar ratsionallikdan ko'ra ko'proq emotsional xarakterga ega.

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Xo'sh, ijtimoiy fanlarda dialektikani inkor etish va uni sinergetika bilan almashtirish nimaga olib keladi? Bunday rad etish tizim rivojlanishining ma'lum bir bosqichini mutlaqlashtirishga va butun bir yaxlit rivojlanish jarayonini ko'zdan qochirishga olib keladi. Agar biz ijtimoiy tizimning rivojlanishini tavsiflashga harakat qilingan ijtimoiy sinergetikaga oid tadqiqotlarni ko'rib chiqsak, unda sinergetik tushunchalar sifatida asosan tartib va tartibsizlik (xaos) munosabatlari haqida so'z yuritiladi. Albatta, har qanday tizimda tartibni ham, xaosni ham topish mumkin, ammo ularga tizimni hosil qiluvchilik xususiyatini berish to'g'ri emas. Asosli bo'lishi uchun ba'zi misollarni ko'rib chiqsak.

Ijtimoiy sinergetikaning o'ziga xosligi shundaki, u fizik va biologik sinergetikadan farqli o'laroq, ijtimoiy o'z-o'zini tashkillashtirishning umumiy qonuniyatlarini, ya'ni ijtimoiy tartib va ijtimoiy xaos o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi [9]. "Sinergetika rivojlanish jarayonini qonuniyat, shu bilan birga tartib va xaosning takroriy almashinuvi deb biladi" [10]. Tartib va xaosning bir-biriga o'tishi ko'rib chiqiladigan juda ko'p tadqiqotlar mavjud. Bu tushunchalar bilan bog'liq yana bir xususiyat shundaki, xaosga tartibning yaratuvchisi tarzidagi ma'no beriladi. Deyarli barcha sinergetika tadqiqotchilari xaosning ijodiy imkoniyatlariga urg'u beradilar. Branskiyning ta'kidlashicha, xaos taraqqiyot manzarasiga organik tarzda birlashadi, lekin shu bilan birga o'zining ijodiy xarakterini saqlab, yangi tartib va xaosni keltirib chiqaradi [11].

Agar xaosning ijodiy roli haqidagi ibora metafora bo'lsa, unda bu juda o'rinli. Ammo, agar bu metafora bo'lmasa, unda bunga qo'shilishning iloji yo'q. Xaos, sinergetik konsepsiyaning o'zidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu tizimning o'tish yoki bifurkatsiya davridagi holati. Xaos – bu tizimning holati, holat esa harakatlantiruvchi kuch, harakat manbai bo'la olmaydi. Holat o'z-o'zini tashkillashtirish uchun stimulyat sifatida harakat qilishi mumkin, ammo o'z-o'zini tashkillashtirishning sababi, manbai tartibsizlikdan tashqarida. Fizika yoki kimyo elementar zarralar, atomlar, molekulalar faoliyatining ichki sabablarini bilmaydi. Shuning uchun ularning o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonini faolligi bilan emas, balki tashqi sabablar bilan izohlash to'g'riroq bo'ladi. Uzoq davr mobaynida ba'zi olimlar noaniq narsalarni oddiy tarzda "obyektning tabiati shunday", deb mulohaza qilishardi. Xaos tizim elementlari harakatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. O'z-o'zini tashkillashtirishning sababi tartibsizlikda emas, balki boshqa narsada. Buni fizik masalalarda hali tushunish mumkin emas, lekin ijtimoiy tizim masalalarida amalga oshirish

mumkin. Jamiyatda qism sifatida elementar zarrachalar emas, balki o'zlari murakkab tizim bo'lgan kishilar ishtirok etadi. Bu tizimlar ichki faollikka ega bo'lib, ularning xulq-atvori, harakati sabablarini o'rganish orqali tashkillashtirish sabablarini tushunish mumkin. Ular tartibsizlikda emas, balki insonning o'zida. Shaxsda biologik mavjudot sifatida tabiiy xulq-atvor dasturlarining (instinktlarning) mavjudligi ijtimoiy strukturaning dezorganizatsiyasi, destruksiya holatlarida o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmini ishga tushirishni ta'minlaydi. Elementlar darajasidagi ijtimoiy tizim muvozanatsizdir. Kishilar o'zlarining shaxsiy fazilatlarini darajasida bir xil emas. Xususan, faol shaxslar, liderlar mavjud bo'lib, ularning jamiyatda hukmronlik qilishga intilishi boshqalarga qaraganda ancha rivojlangan. O'z navbatida, bunday dominantlarga duch kelgan kishilar boshqa instinktning ishlashini — bo'ysunishni namoyish etadilar. Shu sababli, tirik organizmlarning har qanday jamoasida bo'lgani singari, ierarxik struktura paydo bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunga xaosning mutlaqo aloqasi yo'q.

Endi ijtimoiy sinergetikaning "sevimli" g'oyasi, jamiyat taraqqiyoti jarayonida xaosdan tartibga va aksincha, tartibdan xaosgacha bo'lgan cheksiz o'zaro o'tishlar hamda ierarxizatsiyaning murakkablashishi va soddalashishi haqida qarashlarni ko'rib chiqsak. Agar bu jarayonning oxiri bo'lmasa, u cheksizlikka boradi. Ibtidoiy jamoa davrida jamiyatning barcha a'zolari bir-biriga nisbatan ijtimoiy jihatdan teng va xususiy mulk mavjud emas edi, sivilizatsiya taraqqiyoti bilan kishilar o'rtasidagi tengsizlik va xususiy mulk shakllandi. Ibtidoiy jamiyatda birgalikdagi hayotni tashkillashtirishda ratsional tamoyil, ya'ni madaniyat dominantligi rol o'ynaydi va buning natijasida boshqaruv hamda struktura yetakchi shakllar hisoblanadi. Sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda esa o'zaro munosabatlarni, raqobatni, tanlovni va buning natijasida o'z-o'zini tashkillashtirishni tartibga soluvchi avtomatik mexanizm faollashadi. Hodisa sifatida inson mavjudligining ushbu shakli markazida, ongli odam harakat qiladi, lekin mohiyatiga ko'ra, uning harakatlari ratsional printsip va madaniyat bilan emas, balki tabiiy biologik instinktlar bilan belgilanadi. Bu holatda ratsional asos ongsizlikka xizmat qiladi. Agar sinergetika pozitsiyada qoladigan bo'lsak, unda haqiqatan ham xaosdan tartibga, tartibdan xaosga va ko'plab tanlovlar guvohi bo'lamiz. Ammo bunda ibtidoiy jamiyat kishilar tashkillanishining o'ziga xos shakli sifatida ekanligi unutilib, faqat xaos va tartibni izlashga olib keladi. Dialektika boshqa narsani ko'rishga imkon beradi. Aynan bir-biridan tubdan farq qiladigan, ammo genetik jihatdan uzviy o'zaro bog'liq bo'lgan kishilar tashkillanishining ikki sifat jihatidan turlicha shakllarini namoyon qiladi. Dastlab Gegel, keyin esa Marks, Engels va ularning izdoshlari bu organik tizim rivojlanishining tabiiy bosqichlari ekanligini ko'rsatdilar. Birinchi bosqich yangi sifatning paydo bo'lishi yoki tasdiqlanishidir. U nomukammal, rivojlanmagan shakldan va asta-sekinlik bilan rivojlanish tomon boradi. Keyin u ikkinchi bosqichga o'tib, birinchi bosqichni inkor etadi. Bunda ayni paytda shakl ham, mazmun ham inkor etiladi. Rivojlanishning ushbu bosqichida hamma narsa birinchi bosqichga qarama-qarshi tarzda taqdim etiladi. Biz tarixda aynan shu narsani ko'rishimiz mumkin. Dastlab munosabatlar insonparvarlik, tenglik, hayot uchun zarur bo'lgan barcha narsalarning umumiylikiga asoslangan jamoalar paydo bo'ladi. Ammo bularning barchasi kurtak holatida va faqat jamoada shakllanadi. Mehnat unumdorligi past bo'lib, tirikchilikni ta'minlash esa barcha jamoa a'zolarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilangina amalga oshiriladi. Individual ong rivojlanmagan tarzda "borliq bu biz" g'oyasi ustunlik qiladi. Tabiiyki, "borliq bu men" tushunchasi mavjud bo'lolmaydi. Birgalikdagi hayotning nazorat parametri madaniy me'yorlar bo'lib, muayyan xatti-harakatlarga, ya'ni tabiiy egoizmning namoyon bo'lish shakllariga taqiq qo'yiladi. Biroq ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bilan individual mehnat unumdorligi oshadi va individual ong rivojlanadi. Avval "ego" si boshqalardan ko'ra ko'proq rivojlangan elita guruhi jamoadan ajralib chiqadi. Bu guruh, tabiiy qobiliyatlari tufayli boshqalarga nisbatan ortiqcha mahsulotni ishlab chiqarishga muvaffaq bo'ldi va o'z-o'zini anglab, ya'ni o'zining "ego" sini boshqalarga qaraganda ertaroq tushundi. Shu sababli, bu guruh umumiy massadan ajralib, turli jihatlariga ko'ra farqlana boshladi: kiyim-kechak, taqinchoqlar, oziq-ovqat hamda keyinchalik qullarning paydo bo'lishi va hokazo. Asta-sekin xususiy mulk, ijtimoiy tengsizlik, resurslar uchun raqobat, mavqe, shon-shuhrat va boshqalar kurashning asosi sifatida vujudga keladi. Bu jarayonda asosiysi shaxslarning o'z-o'zini va o'z ehtiyojlarini anglashidir. Aql jamiyat manfaatlariga emas, balki individ manfaatlariga xizmat qila boshladi. Jamiyat o'z taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga o'tdi va uni Gegel "Anti-tezis" deb atagan edi. Bu yerda hamma narsa birinchi bosqichning qarama-qarshisi tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichi o'z-o'zini tashkillashtirish bosqichi sifatida sinergetika qonunlariga muvofiq ishlaydi. O'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmining asosi xaos ham, xaosning tartib bilan kurashi ham emas, balki hayot jarayonida ishtirok etuvchi

kishilar instinktlarining kurashi, manfaatlar kurashidir. Tirik tabiatda individlarning birinchilik uchun kurashi tabiiy tanlanishning asosi, turning takomillashuv mexanizmi bo'lganidek, inson jamoasida ham individlarning mulk, hokimiyat, mablag' egaligi uchun ustunlik va boshqalar (sof insoniy shakllar) uchun kurashi pirovard natijada jamiyat taraqqiyotiga olib keladi. Mehnat unumdorligi, turmush darajasi, aql, munosabatlardagi insonparvarlik darajasi va boshqalar o'sib boradi. Bularning barchasi qon to'kilishi va azob-uqubatlar orqali sodir bo'ladi va shunga qaramay, taraqqiyot yuzaga keladi.

A. K. Astafiev, V. P. Branskiy, K. M. Oganyanlarning ta'kidlashicha, tabiatdan farqli o'laroq, jamiyat rivojlanishida obyektiv tartib va obyektiv kaos, mafkuraviy ("subyektiv") tartib va kaos o'ziga xos tarzda bir-biri bilan birlashadi. Shuning uchun ham ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy ideallardan tashqari, mustaqil "obyektiv" mezon mavjud emas. Bu juda muhim xulosaga olib keladi: nisbiy taraqqiyot nisbiy idealning amalga oshishi bilan, mutlaq taraqqiyot esa mutlaq idealning amalga oshishi bilan belgilanadi [12]. "Fikrlar (ideallar) dunyoni boshqaradi" degan tezis juda uzoq vaqtdan buyon ma'lum. Biroq, doimiy savol tug'iladi: idealning orqasida nima turibdi, uni nima belgilaydi?

Agar dunyoqarashning ba'zi jihatlarini e'tiborsiz qoldiradigan bo'lsak, unda Kant, Gegel, Marks va Engels nuqtai nazaridan ham ideal — faoliyat maqsadining obrazidir. Agar zamonaviy psixologiyaga murojaat qilsak, faoliyatning maqsadi (ideal) munosabat bilan uzviy bog'langanligini, bu esa o'z navbatida motiv bilan, motiv esa ehtiyoj bilan uzviy bog'langanligini ko'ramiz. Bilamizki, ehtiyojlar biologik va ijtimoiydir. Biologik ehtiyojlar nafaqat oziq-ovqat, ichimlik va hokazolarga bo'lgan ehtiyoj, balki individual organizmning omon qolishini ta'minlaydi. Biologik ehtiyojlar turning takomillashuvi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, boshqalardan ustun bo'lish, hukmronlik qilish va o'z naslini davom ettirish istagi. Bu ehtiyoj inson uchun barcha boshqalar ehtiyojlar kabi muhim va hatto boshqalaridan ham muhimroq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, biz bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'lgan kamida ikkita idealga duch kelamiz. Birinchi ideal hukmronlik qilish, boshqa odamlarni o'ziga bo'ysundirish istagiga xizmat qiladi, ikkinchi ideal esa o'ziga nisbatan boshqalarning bunday urinishiga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Mavhum, spekulativ konstruksiyalarga asoslangan ideallar nazariy jihatdan asoslab berilgan instinktning yoki situatsiv zaruratni o'z ichiga oladi yoki ijtimoiylikning mohiyatini, ibtidoiy jamoa (erkinlik, tenglik, birodarlik) deb ataladigan idealning birinchi shaklining mohiyatini aks ettiradi. Idealning asosi aniqlanmaguncha, nima uchun inson uni shu qadar faol ravishda hayotga tatbiq qilishga harakat qilishini ochib bo'lmaydi. Faoliyatning tabiati insonning biologik tabiatiga biologik instinktlar shaklida kiritilgan.

Jamiyat muayyan qismining mehnati evaziga boshqalarining ehtiyojlari qondirilishida ustunliklarni ta'minlashga qaratilgan davlat deb nomlangan maxsus ierarxik tuzilishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Davlat munosabatlarning mavjud strukturasi qayta ishlab chiqarishni, yuzaga keladigan fluktuatsiyalarni bostirishni va tizimni avvalgi holatiga qaytarishni ta'minlaydi. Biroq vaqti-vaqti bilan tashqi yoki ichki omillarga ko'ra ijtimoiy tizimning strukturasi (lokal jamoa) buziladi, strukturaviy kaos paydo bo'ladi. Bunday sharoitlarda o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni boshlanadi. Buning sababi esa kishilarning doimiy faolligi, hukmronlik qilish istagidir. Ular esa turli shiorlar (ideallar) ostida atroflariga hamfikrlarni to'playdilar. Agar ideal o'z vaqtida (sharoit, imkoniyatlar) pishib yetilgan bo'lsa, fluktuatsiya kuchayadi va butun tizimni bo'ysundirishi mumkin. Biroq, dastlabki shakllar o'zgarishi bilan munosabatlarning mohiyati bir necha ming yillar davomida deyarli o'zgarmadi. Iqtisodiy munosabatlar va ekspluatatsiya shakllari o'zgardi, ammo ekspluatatsiyaning o'zi saqlanib qoldi. Kishilarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini qurishda oqilona asos tabiiy printsipga – hukmronlik qilish istagiga nisbatan zaifroq bo'lib chiqdi.

Yuqoridagi mualliflarning ta'kidlashicha, jamiyatning inqiroz holati bir qator ehtimoliy (xususan virtual ma'noda) bo'lgan strukturalarning obyektiv paydo bo'lishini nazarda tutadi. Bunday holda, jamiyat ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy portlash yoqasida bo'lib, uni faqat keng omma manfaatlarini qondiradigan, transformatsiyalarga olib keladigan ijtimoiy o'zgarishlar oldini olish mumkin. Nochiziqilik elementi faqat ijtimoiy o'zgarishlar natijalarining printsipial noaniqligiga asoslanadi [13]. Bu, albatta, to'g'ri chunki inqiroz davridagi natijani oldindan aytish qiyin.

A. V. Daxin S. P. Kurdyumov, G. G. Malinetskiy, A. B. Potapov, D. S. Chernyavskiy [14] asarlariga tayanib, sinergetik "oldindan bashorat qilib bo'lmaydiganlik" chuqurroq o'rganilganda nisbiy ekanligini ta'kidlaydi: u kuzatuvchining tizimdagi o'rniga, shuningdek, tizimdagi shart-sharoitlarga bog'liq. Binobarin, fazo va vaqt atributlari mavjud bo'lib, ulardagi sharoitlarga qarab

## FALSAFA

tizimning xatti-harakatlarini bashorat qilish mumkin va xuddi shu tizimning xatti-harakatlarini bashorat qilish mumkin bo'lmagan sharoitlar mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi [15].

Ijtimoiy fanlarda sinergetikani qo'llashning yana bir jihati aniqlik kiritishni talab qiladi. Bu "ijtimoiy tizim" tushunchasidan foydalanishdir. Bir paytlar Marks jamiyat rivojlanishi muammosi ustida ish olib borar ekan, muomalaga yangi tushuncha — "ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya" ni kiritishga majbur bo'ldi. Bu "jamiyat" tushunchasining juda keng mazmuni bilan bog'liq edi. Bugungi kunda xuddi shunday holatni ijtimoiy sinergetikada ham ko'rish mumkin. Birinchidan, "jamiyat" tushunchasi uni qo'llash chegaralarini ko'rsatmasdan ishlatiladi (avtohavaskorlar jamiyati yoki tarixning muayyan bosqichidan olingan jamiyat yoki zamonaviy jamiyat, Yunon, Hind va boshqalar). Ikkinchidan, mazmuni aniqlamay turib, "ijtimoiy tizim" tushunchasidan foydalaniladi. Shu sababli, xaosdan tartibga o'tish, attraktor tomon harakatlanish va hokazolar tasvirlanganda, qanday ijtimoiy tizim haqida gap ketayotgani ko'pincha noaniq bo'lib qoladi.

V. I. Sirov "Falsafa va sinergetika" maqolasida sinergetika tushunchalarining ijtimoiy sohaga noo'rin tarzda o'tkazilishi haqida quyidagi tanqidiy dalillarni keltiradi: "Ijtimoiy tizimning dissipativligi haqida gapirganda, ular energiyaning tarqalishi haqida gapirayotganimizni unutishadi va birinchi navbatda "ijtimoiy energiya" o'zi nima ekanligini va uni miqdoriy jihatdan qanday o'lchash mumkinligini aniqlash kerak bo'ladi. "Jamiyat ochiq tizimdir" deb postulatsiya qilib, u kimga va nimaga nisbatan "ochiq" degan savol umuman qo'yilmaydi, "yopiq tuzum" kabi narsalarni butunlay e'tibordan chetda qoladi. Tegishli tizimlar harakatining "fazali fazo" tushunchasiga aniqlik kiritgandan keyingina ijtimoiy-ma'naviy sohadagi "attraktorlar" haqida jiddiy gapirish mumkin bo'lishini ular ko'rmaydilar. Bifurkatsiya holati uning mazmunida sistema (attraktorlar) rivojlanishining ko'plab potensial yo'llari to'qnashuvi sifatida qaraladi... Biroq, tizimning fazali traektoriyalari rivojlanish yo'nalishlari emas, balki harakat yo'nalishlari hisoblanadi" [16].

Sinergetika fazali fazoda joylashgan tizimlarni, agar dialektik kategoriyalardan foydalansak, o'tish yoki sakrash fazosini ko'rib chiqadi. Boshqa holatlarda ham u bilan tasvirlangan qonuniyatlar sodir bo'ladi, lekin u yoki bu tarzda miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi dialektik qonunining namoyon bo'lishini aniqlaydigan mexanizmlar bilan bog'liq. Shuning uchun, biz qaysi jamiyat haqida gapirayotganimiz haqidagi savolga aniqlik kiritmasdan, turib, o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonining sinergik qarashlarini jamiyatga nisbatan qo'llashga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bu chalkashlikni keltirib chiqaradi va noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

**XULOSA**

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish kerakki, biz qaysi jamiyat haqida gapirayotganimizni aniqlamay turib, jamiyatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonini ko'rib chiqishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aks holda, biz har qanday vaziyatga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan va har qanday vaziyatni tushuntirib beradigan va shuning uchun mutlaqo foydasiz bo'lgan noo'rin abstraksiyaga ega bo'lamiz. Ijtimoiy sohada sinergetikani qo'llash jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, hali ko'p tushunarsiz jihatlar mavjud bo'lib turibdi. Shubhasiz, jamiyatni sinergetik dunyoqarash nuqtai nazaridan o'rganish jarayoni ko'pincha sinergetikaning ba'zi qoidalarini mutlaqlashtirishdan aziyat chekadi. Kishilik jamiyatining o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarini o'rganishda sinergetikaning ijodiy salohiyati undan to'liq foydalanishdan yiroq va bu sinergetika rivojlanishi bilan birga samarali bo'lib boradi. Jamiyatni o'rganishdagi asosiy vazifa ijtimoiy jarayonlarni tavsiflashda sinergetika imkoniyatlarini bo'rttirib ko'rsatmaslik va uni ijtimoiy tizim rivojlanishida qo'llash chegaralarini aniq anglashdan iborat. Sinergetika rivojlanish jarayonining faqat bir jihatini – o'z-o'zini tashkillashtirishni tavsiflaydi. Rivojlanish jarayonini dialektika tasvirlaydi va uni sinergetika bilan almashtirish mumkin emas. Zamonaviy fanda jamiyatni o'rganishga yanada samarali yondashish mavjud bo'lgan barcha metodologik yondashuvlarning elementlarini sintez qilish, xususan: dialektik, informatsion, tizimli, sinergetik va boshqalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Тураев Б. О. и др. Сinergetika: mo'xijati, qonuniyatlarini va amaliyotda namoён бўлиши //Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.
2. Odilovna M. Z. Духовно моральный мир человека в контексте синергетики //Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2015. – Т. 1. – №. 3-4. – С. 157-160.
3. Sultanova G. Methodology and way of thinking in postnonclassical phylosophy //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 172-174.
4. Эргашева М. Х. Замонавий таълим синергетик тизим сифатида //Философия и жизнь международный журнал. – 2022. – №. SI-1.
5. Alikulov S. A., Rizaev I. I. Methodological problems of research of social systems //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 717-720.



6. Бозаров Д. М., Каримова Г. Й. Мураккаб ижтимоий тизимларда ўз-ўзини ташкиллаштириш моделининг ўрни // *Oriental Journal of Social Sciences*. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-9.
7. Усмонов Ф. Н. Рациональность и традиция в развитии науки // *Инновации в технологиях и образовании*. – 2016. – С. 349-353.
8. Тураев Б. О. Фонда толерантлик ва интолерантлик // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 41-48.
9. Rizaev I. Synergetics in Social Systems and its Possibilities // *Global Scientific Review*. – 2022. – Т. 10. – С. 62-69.
10. Басина Г. И., Басин М. А. Синергетика. Эволюция и ритмы человечества. - СПб.: Норма, 2003. - 258 с.
11. Бранский В. П. Теоретические основания социальной синергетики // *Вопр. философии*. - 2000. - № 4. - С. 112-129.
12. Астафев А. К., Бранский В. П., Оганян К. М. Социальная синергетика: учеб. пособие. - СПб.: СПбГИЭУ, 2004. - 98 с.
13. Эргашева М. Х. Синергетический подход к некоторым идеям в Авесте // *Credo New*. – 2015. – №. 4. – С. 6-6.
14. Дахин А. В. Социокультурный «отскок» как проблема социальной синергетики // *Социальная синергетика: теоретические и практические аспекты*. - Йошкар-Ола, 2004. - С. 91.
15. Тураев Б. О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари' //Т.: Алишер Навоий номидаги збекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Б. – 2015. – С. 48-49.
16. Сыров В. И. Философия и синергетика // *Социальная синергетика: предмет, актуальные проблемы, поиски, решения*. - Йошкар-Ола, 2003. - С. 104.
17. Саматов Х. У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы узбекистана // *Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика*. – 2022. – С. 406-408.
18. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Духовная зрелость и философское мышление зависимость развития // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 4. – С. 164-167.

#### English translation

1. Turaev B. O. i dr. Sinergetika: mox'yati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon b'ylishi //Т.: Navr'yz nashriyoti. – 2017. – S. 12-13.
2. Odilovna M. Z. Duhovno moralnyj mir cheloveka v kontekste sinergetiki // *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*. – 2015. – Т. 1. – №. 3-4. – S. 157-160.
3. Sultanova G. Methodology and way of thinking in postnonclassical philosophy // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 2. – S. 172-174.
4. Ergasheva M. H. Zamonaviy ta"lim sinergetik tizim sifatida // *Filosofiya i zhizn mezhdunarodnyj zhurnal*. – 2022. – №. SI-1.
5. Alikulov S. A., Rizaev I. I. Methodological problems of research of social systems // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 2. – S. 717-720.
6. Bozarov D. M., Karimova G. J. Murakkab izhtimoiy tizimlarda y'z-y'zini tashkillashtirish modelining y'ri // *Oriental Journal of Social Sciences*. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – S. 1-9.
7. Usmonov F. N. Ratsionalnost i tradiciya v razvitii nauki // *Innovacii v tekhnologiyah i obrazovanii*. – 2016. – S. 349-353.
8. Turaev B. O. Fanda tolerantlik va intolerantlik // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – S. 41-48.
9. Rizaev I. Synergetics in Social Systems and its Possibilities // *Global Scientific Review*. – 2022. – Т. 10. – S. 62-69.
10. Basina G. I., Basin M. A. Sinergetika. Evolyuciya i ritmy chelovechestva. - SPb.: Norma, 2003. - 258 s.
11. Branskij V. P. Teoreticheskie osnovaniya socialnoj sinergetiki // *Vopr. filosofii*. - 2000. - № 4. - S. 112-129.
12. Astafev A. K., Branskij V. P., Oganyan K. M. Socialnaya sinergetika: ucheb. posobie. - SPb.: SPbGIEU, 2004. - 98 s.
13. Ergasheva M. H. Sinergeticheskij podhod k nekotorym ideyam v Aveste // *Credo New*. – 2015. – №. 4. – S. 6-6.
14. Dahin A. V. Sociokulturnyj «otskok» kak problema socialnoj sinergetiki // *Socialnaya sinergetika: teoreticheskie i prakticheskie aspekty*. - Yoshkar-Ola, 2004. - S. 91.
15. Turaev B. O. Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari' //Т.: Alisher Navoiy nomidagi zbekiston Millij kutubhonasi nashriyoti, B. – 2015. – S. 48-49.
16. Syrov V. I. Filosofiya i sinergetika // *Socialnaya sinergetika: predmet, aktualnye problemy, poiski, resheniya*. - Yoshkar-Ola, 2003. - S. 104.
17. Samatov H. U. Paradigmalnaya sushchnost socialno-ekonomicheskoy sistemy uzbekistana // *Paradigma sovremennoj nauki v usloviyah modernizacii i innovacionnogo razvitiya nauchnoj mysli: teoriya i praktika*. – 2022. – S. 406-408.
18. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Duhovnaya zrelost i filosofskoe myshlenie zavisimost razvitiya // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 4. – S. 164-167.